# O`ZBEKISTON TA`LIM TIZIMIDA CHET TIL O`QITISH METODIKASI

**Xoshimova Nigora Baxtiyor qizi**
Namangan davlat universiteti jahon tillari fakulteti 3-bosqich talabasi
**Mahmudjanova Shohsanam Husniddin qizi**
Namangan davlat universiteti jahon tillari fakulteti 3-bosqich talabasi
**Rasulova Shohsanam Bahromjon qizi**
Namangan davlat universiteti jahon tillari fakulteti 3-bosqich talabasi

**Anotatsiya:** *Ushbu maqolada bugungi kunda bizning mamlakatimizda turli xil ta`lim muassasalarida chet til o`qitish usullari ,chet til darslarini tashkilashtirish, darslarni o`tkazish va shu bilan bir qatorda turli xil xorijiy tillarni o`rgatishda foydalanilayotgan metodlar va chet til o'qitish metodikasining kelib chiqishi haqida yoritilgan.*

**Kalit so`zlar:** *chet til, metod, metodika, chet til tarixi, aralash metod , tarjima metod, onglilik metodi, L.V.Sherba , qiyosiy metod , leksik tarjima, audiolingual metod*

**Аннотация:** *В данной статье рассматриваются методы преподавания иностранного языка, организация занятий по иностранному языку, методы, используемые при обучении различным иностранным языкам, а также зарождение методики преподавания иностранного языка в нашей стране сегодня в различных учебных заведениях. .*

**Ключевые слова:** *иностранный язык, метод, методика, история иностранного языка, смешанный метод, метод перевода, метод сознания, Л. В. Щерба, сопоставительный метод, лексический перевод, аудиолингвальный метод.*

**Annotation:** *In this article, the methods of foreign language teaching, the organization of foreign language classes, the methods used in teaching different foreign languages and the origin of foreign language teaching methodology in our country today in various educational institutions are discussed. released.*

**Key words:** *foreign language, method, methodology, foreign language history, mixed method, translation method, consciousness method, L.V. Sherba, comparative method, lexical translation, audiolingual method*

Ma'lumki, chet tilni o'rgatish-o'rganish muayyan jihatlari bilan ona tili va ikkinchi tildan keskin farqlanadi. Bu esa, o'z navbatida, tegishli chet til o'qitish texnologiyasini qo'llashni taqozo etadi.

Hozirgi kunda O'zbekistonda maktabgacha ta'limda, maktabda, universitet va institutlarda turli xil chet tillarni o'rgatilmoqda. Xususan bu tillalarga misol qilib nemis, ingliz, yapon, koreys, fransuz, xitoy, arab va boshqa tillarni aytishimiz mumkin.

Chet tillarni o'rgatishda turli xil metodlardan foydalanilmoqda. Avvalo metod o'zi nima? degan savolga javob topsak.

Metod:

-metodik prinsiplar yigʻindisi,

-oʻqitish, oʻrgatish yoʻli, usuli,

-oʻqish, oʻrganish yoʻli, usuli,

-tadqiqot oʻtkazish yoʻli (ilmiy ish qilish jarayonida ishlatiladi).

Priyom, usul va metod tushunchalari adabiyotlarda baʼzan bir maʼnoda (sinonim), baʼzan esa turli maʼnolarda qoʻllaniladi.

Metodik prinsiplar yigʻindisi sifatida quyidagi metodlar farqlanadi:

1. Tarjima metodlar(TM): a) grammatika tarjima metodlar, b) Leksika tarjima metodlar.

2. Aralash metodlar: a) audiolingual metod, b) audiovisual metod.

3. Onglilik metodlari: a) ongli- qiyosiy metod, b) ongli- amaliy metod, c) ongli-kommunikativ metod.

Atoqli tilshunos olim, akademik Lev Vladimirovich Sherba chet til oʻqitish metodikasiga asos solgan. U ongli qiyosiy metodlar haqida oʻz asarlarini yozgan.(1) Maʼlumki, chet tilni oʻrgatish-oʻrganish muayyan jihatlari bilan ona tili va ikkinchi tildan keskin farqlanadi. Bu esa, oʻz navbatida, tegishli chet til oʻqitish texnologiyasini qoʻllashni taqozo etadi.

Hozirgi kunda Oʻzbekistonda maktabgacha taʼlimda, maktabda, universitet va institutlarda turli xil chet tillarni oʻrgatilmoqda. Xususan bu tillalarga misol qilib nemis, ingliz, yapon, koreys, fransuz, xitoy, arab va boshqa tillarni aytishimiz mumkin.

Chet tillarni oʻrgatishda turli xil metodlardan foydalanilmoqda. Avvalo metod oʻzi nima? degan savolga javob topsak.

Metod:

-metodik prinsiplar yigʻindisi,

-oʻqitish, oʻrgatish yoʻli, usuli,

-oʻqish, oʻrganish yoʻli, usuli,

-tadqiqot oʻtkazish yoʻli (ilmiy ish qilish jarayonida ishlatiladi).

Priyom, usul va metod tushunchalari adabiyotlarda baʼzan bir maʼnoda (sinonim), baʼzan esa turli maʼnolarda qoʻllaniladi.

Metodik prinsiplar yigʻindisi sifatida quyidagi metodlar farqlanadi:

1. Tarjima metodlar(TM): a) grammatika tarjima metodlar, b) Leksika tarjima metodlar.

2. Aralash metodlar: a) audiolingual metod, b) audiovisual metod.

3. Onglilik metodlari: a) ongli- qiyosiy metod, b) ongli- amaliy metod, c) ongli-kommunikativ metod.(2)

Atoqli tilshunos olim, akademik Lev Vladimirovich Sherba chet til oʻqitish metodikasiga asos solgan. U ongli qiyosiy metodlar haqida oʻz asarlarini yozgan.(1)

Taʼlim maqsadlariga binoan tillarni oʻrganish quyidagicha tasniflanadi: amaliy maqsadda til oʻrganish (ona tili, ikkinchi til, chet til); taʼlimiy maqsadda til oʻrganish (uchala til); tarbiyaviy maqsadda til oʻrganis h (uchala til); rivojlantiruvchi maqsadda til

oʻrganish (uchala til); kasbiy (professional) maqsadda til oʻrganish (til oʻquv yurti/fakulteti/boʻlimida uchala tildan mutaxassislik oladilar).

Ushbu beshta turdan faqat bittasi (beshinchisi) yagona oʻquv yurti uchun tegishli maqsad hisoblanadi. Qolganlarida ham (1—4 da) mushtaraklik nomiga xolos, aslan bir talay ichki tafovutlar mavjud. Maqsadlardagi tafovut shundan iboratki, ona tili tafakkur shakllanadigan til, hayotiy tajriba ona tili orqali toʻplanib boradi, ona tili yetakchi amaliy muloqot vositasi, shuningdek, u barcha oʻquv predmetlarini oʻrganish vositasidir.

Maqsadlar tasnifida yuzaki oʻxshashlik va mohiyatida tubdan farq borligi ta’lim jarayonini tashkil etishda alohida e’tiborga molik. Oʻqitish maqsadlarining roʻyobga chiqish ,,maydoni“ sharoit boʻlsa, ularni amalga oshirish ,,quroli“ mazmun sanaladi. (3)

Xulosa:

Bugungi kunda O'zbekistonda ham ta'lim sohasiga katta e'tibor berilmoqda. Xususan Xorijiy tillarni o'qitish ham mamlakatimizda jadal sur'atlarda rivojlanmoqda.

Chet til o'rganish ko'p qirrali ta'limot bo'lib, bu jarayonda inson murakkab psixologik o'zgarishlarni boshdan kechiradi. Jumladan ona tili bilan chet tilini taqqoslash jarayoni yuzaga keladi. Bu jarayonda o'rgatishning turli metod va texnologiyalaridan foydalaniladi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar yordamida chet til bilan ona tilini taqqoslab o'rgatish samarali natija beradi. Chet til o'rgatish uning metodikasiga oid bilimlarga ega bo'lishni taqozo etadi. Metodika va texnologiyalar chet til o'rganish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Chet til o`rganayotganda nafaqat tilini balki uruf odatlari va madaniyatini ham o`rgananilmoqda.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. S.Saidaliyev “Chet til o`qitish metodikasi”
2. J.Jalolov “Chet til o`qitish metodikasi” T:2012
3. www.ares.uz.